

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING HUQUQIY ASOSLARI VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Mirgulshanbekov Xiloliddin O'ktamjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

“Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi” yo‘nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15662030>

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari va mintaqaviy integratsiya jarayonlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qiladi.

Maqolada iqtisodiy globallashuv jarayonida Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy va xalqaro huquqiy tizimlari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi davlat roli hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini huquqiy jihatdan uyg'unlashtirish va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat siyosatining muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, huquqiy tartibga solish, savdo siyosati, iqtisodiy xavfsizlik, Jahon savdo tashkiloti (WTO), investitsiya, tashqi iqtisodiy faoliyat, hamkorlik, xalqaro shartnoma.

Аннотация. Данная статья проводит сравнительно-правовой анализ правовых основ внешнеэкономической деятельности и процессов региональной интеграции в странах Центральной Азии. В статье освещаются национальные и международные правовые системы стран Центральной Азии в условиях экономической глобализации, роль государства в регулировании внешнеэкономической деятельности, а также место сотрудничества с международными экономическими организациями. Результаты исследования показывают важность государственной политики для правовой гармонизации внешнеэкономической деятельности стран Центральной Азии и обеспечения региональной экономической стабильности.

Ключевые слова: Центральная Азия, правовое регулирование, торговая политика, экономическая безопасность, Всемирная торговая организация (ВТО), инвестиции, внешнеэкономическая деятельность, сотрудничество, международный договор.

Abstract. This article provides a comparative-legal analysis of the legal foundations of foreign economic activity and regional integration processes in Central Asian countries. The article highlights the national and international legal systems of Central Asian countries in the context of economic globalization, the role of the state in regulating foreign economic activity, and the place of cooperation with international economic organizations. The research results demonstrate the importance of state policy in legally harmonizing the foreign economic activities of Central Asian countries and ensuring regional economic stability.

Keywords: Central Asia, legal regulation, trade policy, economic security, World Trade Organization (WTO), investment, foreign economic activity, cooperation, international agreement.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, strategik geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadigan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) milliy taraqqiyot va barqarorlikning asosiy

omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikka erishganidan keyin bu davlatlar tashqi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solish yoʻlida oʻziga xos huquqiy tizimlarni yaratishga kirishdilar. Shu bilan birga, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik, erkin savdo shartnomalari, investitsion muhitni yaxshilash va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol qoʻshilish ham dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga oid huquqiy asoslar turlicha yondashuvlar asosida shakllanayotgan boʻlsa-da, umumiy mintaqaviy manfaatlar ularda integratsion harakatlarni kuchaytirishga zamin yaratmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, tashqi iqtisodiy qonunchilikni uygʻunlashtirish, iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash va hududiy barqarorlikni mustahkamlashni talab etadi.

Mazkur maqola doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslari, bu sohadagi davlat roli va funksiyalari, milliy qonunchilik tizimlarining oʻzaro qiyosiy-huquqiy tahlili hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning huquqiy jihatlari va bu hamkorlikning milliy qonunchilikka taʼsiri ham yoritib beriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) — bu davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy sheriklar bilan amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlarining majmui boʻlib, u savdo, investitsiya, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va boshqa koʻrinishlardagi transchegaraviy aloqalarni oʻz ichiga oladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat — milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo bilan oʻzaro taʼsirini taʼminlaydigan vosita boʻlib, u mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, chet el investitsiyalarini jalb etish va xalqaro iqtisodiy tizimda faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Huquqiy nuqtai nazardan, tashqi iqtisodiy faoliyat — bu davlat tomonidan belgilangan meʼyoriy-huquqiy asoslar doirasida amalga oshiriladigan va xalqaro huquq qoidalari bilan muvofiqlashtiriladigan faoliyatdir. U ikki bosqichli huquqiy tartibga solishga ega:

Milliy darajada — TIF davlat tomonidan ichki qonunchilik asosida tartibga solinadi. Bu qonunchilikka, odatda, tashqi savdo, bojxona, valyuta, investitsiyalar, eksport-import operatsiyalari, raqobat, intellektual mulk va xalqaro shartnomalar bilan bogʻliq normativ-huquqiy hujjatlar kiradi.

Xalqaro darajada — TIF xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, bitimlar hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning qoidalari orqali tartibga solinadi. Bu yerda Jahon savdo tashkiloti (WTO)¹, BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)², Xalqaro valyuta fondi (IMF)³ va boshqa xalqaro institutlarning oʻrni muhimdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tabiati uni boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan ajratib turadi. Birinchidan, bu faoliyat xalqaro elementga ega boʻlib, chet el fuqarolari, kompaniyalari yoki xorijiy davlatlar ishtirokini nazarda tutadi. Ikkinchidan, u davlat suvereniteti va iqtisodiy xavfsizlik masalalari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, tashqi iqtisodiy operatsiyalar ustidan nazorat qilish davlatning ustuvor funksiyalaridan biri hisoblanadi. Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatda turli xil huquq sohalari (fuqarolik huquqi, iqtisodiy huquq, bojxona huquqi, moliya huquqi, xalqaro xususiy huquq va xalqaro iqtisodiy huquq) kesishadi.

Shu sababli, TIFga oid huquqiy munosabatlar kompleks huquqiy xarakterga ega boʻlib, unda ichki va xalqaro normativlar oʻzaro uygʻunlikda ishlashi kerak.

¹ <https://www.wto.org/>

² <https://unctad.org/>

³ <https://www.imf.org/en/Home>

Masalan, eksport shartnomasi tuzishda tomonlar o'zaro muvofiqlashtirilgan huquqiy tizimlarga amal qilishadi; bu shartnomaga milliy qonunlar bilan bir qatorda Vena konvensiyasi (1980 y.)⁴ kabi xalqaro shartnomalar ham tatbiq etilishi mumkin.

Shuningdek, TIFda davlatning roli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat tashqi savdo faoliyatini nazorat qiladi, litsenziyalash, kvotalar, bojlar, sanksiyalar va rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar orqali uni tartibga soladi. Shu bois, TIFni huquqiy jihatdan tahlil qilishda faqat shaxslararo munosabatlarni emas, balki davlatning iqtisodiy siyosatini aks ettiruvchi me'yorlar tizimini ham hisobga olish muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy manbalari.

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy manbalariga to'xtaladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati (TIF) ularning iqtisodiy suvereniteti, xalqaro aloqalari va strategik manfaatlarini ifoda etadi. Har bir mamlakat TIF sohasini tartibga solish uchun o'ziga xos huquqiy bazani shakllantirgan bo'lib, bu baza milliy qonunchilik, xalqaro shartnomalar va mintaqaviy kelishuvlardan iborat murakkab tizimni tashkil etadi. Bu huquqiy manbalar davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, savdo-sotiqni rivojlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifasini bajaradi.

1. Milliy huquqiy manbalar

Har bir Markaziy Osiyo davlati TIFni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlarini ishlab chiqqan. Ularga quyidagilar kiradi:

Konstitutsiya – har bir davlatning asosiy qonuni sifatida tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi umumiy yondashuv va prinsiplarni belgilaydi (masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-47-65-66-67-moddalari mulk huquqi va iqtisodiy faoliyat erkinligini kafolatlaydi)⁵.

Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonunlar – bu qonunlar bevosita TIFni tartibga soladi. Masalan:

- ✓ O'zbekiston: "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2000 y.).⁶
- ✓ Qozog'iston: "Savdo faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi Qonun (2004 y.).⁷
- ✓ Qirg'iziston: "Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi Qonun (2023 y.).⁸
- ✓ Tojikiston: "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2007 y.).⁹
- ✓ Turkmaniston: "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2014 y.).¹⁰

Ushbu qonunlarda tashqi savdo erkinligi, eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash va kvotalash, bojxona tartibotlari, valyuta nazorati, xalqaro investitsiya shartnomalari va boshqa masalalar yoritilgan.

• Bojxona kodekslari – har bir mamlakatning bojxona tizimi va chegara orqali o'tkaziladigan tovarlar ustidan nazoratni belgilaydi.

⁴ https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09951_e_ebook.pdf

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 26.05.2000 yildagi 77-II-son

⁷ Qozog'iston Respublikasining "Savdo faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni

⁸ Qirg'iziston Respublikasining "Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni

⁹ Tojikiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni

¹⁰ Turkmaniston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni

- Valyuta tartibga solinishi haqida qonunlar – xorijiy valyuta operatsiyalari va kapital harakatlarini nazorat qilishni koʻzda tutadi.

- Investitsiya toʻgʻrisidagi qonunlar – xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlovchi va ularni himoya qiluvchi meʼyoriy hujjatlar hisoblanadi.

2. Xalqaro huquqiy manbalar

Markaziy Osiyo davlatlari TIF sohasida bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar ishtirokchilari hisoblanadi:

➤ Jahon savdo tashkiloti (WTO) – hozirda faqat Qirgʻiziston (1998-yildan) va Qozogʻiston (2015-yildan) WTO aʼzolari. Bu davlatlar WTOning savdo erkinligi, tariflar va nontarif toʻsiqlarni kamaytirish borasidagi majburiyatlarini bajarmoqdalar.

➤ BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari (UNCTAD, UNCITRAL) – bu tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan savdo, transport, huquqiy xavfsizlik boʻyicha xalqaro hujjatlar TIF sohasida muhim rol oʻynaydi.

➤ Multilateral investitsiya kafolatlari agentligi (MIGA) va Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi (ICSID)¹¹ kabi tuzilmalar xorijiy investitsiyalarni tartibga solish va huquqiy himoya berish boʻyicha xalqaro normativ bazani shakllantiradi.

3. Mintaqaviy huquqiy manbalar

Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy integratsiya doirasida bir qancha huquqiy kelishuvlarga imzo chekishgan:

1. Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) – Qozogʻiston bu tashkilotga aʼzo boʻlib, ittifoqning yagona bojxona hududi, umumiy savdo siyosati va texnik reglamentlariga amal qiladi¹².

2. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) – bu tuzilmada iqtisodiy hamkorlik boʻyicha keng qamrovli hujjatlar qabul qilingan boʻlib, ular savdo, transport, logistika va investitsiyaviy faoliyatni tartibga solishda muhim huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi¹³.

3. Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) – bu dastur doirasida xalqaro tranzit yoʻllari, bojxona standartlari va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga oid qator hujjatlar ishlab chiqilgan.

4. Ikki tomonlama va koʻp tomonlama shartnomalar – Markaziy Osiyo davlatlari oʻzaro yoki uchinchi mamlakatlar bilan imzolagan savdo, investitsiya, erkin savdo zonalari, transport va moliyaviy hamkorlikka doir bitimlar TIFni tartibga soluvchi asosiy manbalardan biridir.

Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy manbalar koʻp qatlamli va murakkab tizimga ega. Milliy qonunlar ichki iqtisodiy suverenitetni taʼminlasa, xalqaro va mintaqaviy hujjatlar bu davlatlarning global iqtisodiy tizimdagi ishtirokini muvofiqlashtiradi. Ushbu huquqiy manbalar uygʻunlashuvi nafaqat iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish, balki mintaqaviy integratsiya va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham muhim vositadir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlatning roli va funksiyalari.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo bilan oʻzaro aloqasini belgilovchi muhim soha boʻlib, unda davlat markaziy rol oʻynaydi. Davlat bu sohada nafaqat tartibga soluvchi, balki strategik yoʻnaltiruvchi va himoya qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

¹¹ <https://icsid.worldbank.org/>

¹² <https://www.gov.kz/memleket/entities/mti/activities/278?lang=ru>

¹³ <https://eng.sectesco.org/>

Birinchidan, normativ-huquqiy tartibga solish davlatning asosiy funksiyasidir. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni qonunchilik asosida tartibga soladi, eksport-import operatsiyalarini, bojxona, valyuta, investitsiya va soliq siyosatini belgilaydi.

Ikkinchidan, davlat iqtisodiy xavfsizlik va milliy manfaatlarni himoya qilish vazifasini bajaradi. Bu — strategik mahsulotlar eksportini nazorat qilish, ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish, sanksiyalar va kontratsanksiyalar mexanizmlarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, davlat xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda faol ishtirok etadi: savdo bitimlari, erkin savdo hududlari, ikki va ko'p tomonlama shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish orqali iqtisodiy diplomatiya olib boradi.

To'rtinchidan, davlat eksportni rag'batlantirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yo'lda u soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji, eksport kreditlari va sug'urtalash tizimlarini yo'lga qo'yadi.

Shuningdek, davlat TIF doirasida axborot tizimlari, statistika, marketing va eksport salohiyatini baholash xizmatlarini ham tashkil etadi, ya'ni tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytganda, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi roli — bu faqat nazorat va ruxsat bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy siyosatni shakllantiruvchi, tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtiruvchi, milliy manfaatlarni himoya qiluvchi kompleks subyekt sifatida harakat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ishtiroki va ularning ta'siri.

Markaziy Osiyo davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — mustaqillikka erishganidan so'ng global iqtisodiy tizimga integratsiyalashishga intilib, turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok eta boshladilar. Bu ishtirok ularning tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1. Jahon savdo tashkiloti (WTO) doirasidagi ishtirok.

Jahon savdo tashkiloti (WTO) — xalqaro savdo munosabatlarini erkin va adolatli asosda tartibga soluvchi asosiy tuzilma bo'lib, uning normativ bazasi global savdo tartib-qoidalarini belgilaydi¹⁴.

• Qirg'iziston WTOga 1998-yilda qo'shilgan va bu borada mintaqada birinchi bo'lgan davlatdir.

• Qozog'iston 2015-yilda a'zo bo'lgan va o'zining iqtisodiy qonunchiligini WTO standartlariga moslashtirgan.

• Tadjikiston 2013-yildan beri a'zolik maqomiga ega.

• O'zbekiston 1994-yildan beri kuzatuvchi davlat bo'lib, 2020-yillardan boshlab faol a'zolik yo'lida harakat qilmoqda.

• Turkmaniston esa WTO bilan cheklangan hamkorlik qilmoqda, biroq to'liq a'zo emas.

WTOga a'zolik davlatlardan tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, tarif va nontarif to'siqlarni kamaytirish, xalqaro savdo normalariga rioya qilishni talab etadi. Bu esa mintaq mamlakatlarining tashqi savdo faoliyatini ochiq, prognoz qilinadigan va raqobatbardosh muhitda amalga oshirishiga xizmat qiladi.

2. Xalqaro valyuta fondi (IMF) va Jahon banki (World Bank) bilan hamkorlik.

¹⁴ <https://www.wto.org/>

Markaziy Osiyo davlatlari Xalqaro valyuta fondi (IMF) va Jahon banki (WB) bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu moliyaviy institutlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, institutsional islohotlarni amalga oshirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

➤ O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Jahon banki yordamida energetika, transport va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda.

➤ IMF tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlariga makroiqtisodiy monitoring, statistik ko'rsatkichlar sifati va fiskal barqarorlikni oshirish bo'yicha texnik ko'mak berib kelinmoqda.

Shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) va Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. YeOII a'zolari bo'lgan Qozog'iston va Qirg'iziston savdo va migratsiya sohalarida afzalliklarni qo'lga kiritgan bo'lsa, ShHT mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy loyihalarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda ishtirok Markaziy Osiyo davlatlariga iqtisodiy siyosatni jahon standartlariga moslashtirish, yangi savdo va investitsiya imkoniyatlarini yaratish hamda mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlik istiqbollari.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgandan so'ng o'z iqtisodiyotlarini mustahkamlash va global bozorga chiqish uchun mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Mintaqaviy integratsiya — bu davlatlar o'rtasida iqtisodiy siyosatni uyg'unlashtirish, savdo-sotiqni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, transport va infratuzilma sohalarida hamkorlikni kuchaytirish jarayonidir. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirish va global iqtisodiy tizimda raqobatbardoshligini ta'minlashdir.

Mintaqaviy integratsiyaning hozirgi holati

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari turli mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida integratsiya jarayonlarini amalga oshirmoqda. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) va Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. YeOIIga a'zo bo'lgan Qozog'iston va Qirg'iziston, shuningdek, kuzatuvchi maqomidagi O'zbekiston, mintaqaviy savdo va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti esa nafaqat xavfsizlik, balki iqtisodiy hamkorlik sohasida ham o'z salohiyatini oshirmoqda.

Bundan tashqari, Osiyo taraqqiyot banki boshchiligidagi amalga oshirilayotgan Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC)¹⁵ orqali transport yo'laklarini rivojlantirish, bojxona tizimini takomillashtirish va savdo to'siqlarini kamaytirish bo'yicha amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Integratsiya jarayonining istiqbollari

Kelajakda mintaqaviy integratsiya quyidagi yo'nalishlarda chuqurlashishi kutilmoqda:

1. Iqtisodiy siyosat va normativ bazani uyg'unlashtirish: Mintaqa davlatlari tashqi savdo, bojxona va investitsiyalar sohasidagi qonunchilikni muvofiqlashtirib, integratsiyani yanada rivojlantiradi. Bu esa sarmoyadorlar uchun ishonchli va barqaror iqtisodiy muhit yaratadi.

2. Savdo-sotiq va investitsiyalarni oshirish: Erkin savdo zonalarini va tarif to'siqlarini kamaytirish orqali ichki bozorni kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ortadi.

¹⁵ <https://carececo.org/main/>

3. Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish: Mintaqaviy transport yo'laklarini modernizatsiya qilish, tranzit salohiyatini oshirish orqali savdo jarayonlari tezlashadi va xarajatlar kamayadi.

4. Energetika va tabiiy resurslardan samarali foydalanish: Mintaqaviy energetika tizimini integratsiyalash orqali energiya xavfsizligi ta'minlanadi va yangi energetik loyihalar amalga oshiriladi.

5. Innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyot: Raqamli texnologiyalarni joriy etish va elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga, mintaqaviy integratsiya jarayonida iqtisodiy farqlar, siyosiy tafovutlar, chegaraviy masalalar va milliy manfaatlarning to'qnashuvi kabi muammolar mavjud. Bu qiyinchiliklarni hal etish uchun mintaqa davlatlari o'zaro dialog va kompromisga tayyor bo'lishi zarur.

Markaziy Osiyo davlatlarida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va hamkorlik istiqbollari keng bo'lib, ular mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, yangi bozorlar ochish va global iqtisodiy jarayonlarda samarali ishtirok etishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatlar o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashlari, shuningdek, qonunchilik va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishga katta e'tibor berishlari zarur.

Takliflar

1. Huquqiy bazani uyg'unlashtirish: Mintaqaviy integratsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikda tashqi savdo, investitsiyalar va bojxona sohalaridagi qonunlarni uyg'unlashtirish va bir-birini to'ldiruvchi me'yorlarni qabul qilish zarur.

2. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish: Mintaqa davlatlari xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doirasida o'z manfaatlarini yanada faol ilgari surib, global iqtisodiy siyosatdagi o'z o'rnini mustahkamlashi lozim. Buning uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va ekspertlar almashinuvini kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Mintaqaviy iqtisodiy farqlarni kamaytirish: Iqtisodiy tafovutlarni bartaraf etish uchun mintaqaviy investitsiya jamg'armalari tashkil etish, rivojlanayotgan hududlarga qo'shimcha iqtisodiy yordam ko'rsatish hamda infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish zarur.

4. Innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: Mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etish va elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Ushbu xulosa va takliflar Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini huquqiy jihatdan yanada mukammallashtirish va mintaqaviy integratsiyani samarali rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy manbalar ko'p qatlamli va murakkab tizimga ega. Milliy qonunlar ichki iqtisodiy suverenitetni ta'minlasa, xalqaro va mintaqaviy hujjatlar bu davlatlarning global iqtisodiy tizimdagi ishtirokini muvofiqlashtiradi. Ushbu huquqiy manbalar uyg'unlashuvi nafaqat iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish, balki mintaqaviy integratsiya va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham muhim vositadir.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari va mintaqaviy integratsiya jarayonlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, mintaqaviy davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazalarida umumiy tamoyillar mavjud bo'lishiga qaramay, har bir mamlakatda huquqiy normalarning mazmuni va tatbiqida sezilarli farqlar uchraydi. Bu esa mintaqaviy integratsiya jarayonlarini sekinlashtiruvchi asosiy to'siqlardan biridir. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok etib, global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashmoqda, biroq ushbu ishtirokning samaradorligi ba'zi holatlarda milliy qonunchilikning moslashuvi yetarli emasligi sababli cheklangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 1.2 O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 26.05.2000 yildagi 77-II-son
- 1.3 Qozog'iston Respublikasining "Savdo faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni
- 1.4 Qirg'iziston Respublikasining "Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni
- 1.5 Tojikiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni
- 1.6 Turkmaniston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni
- 1.7 Qozog'iston Respublikasining "Moliyaviy bozor va moliyaviy tashkilotlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish, nazorat va tekshiruv to'g'risida"gi 2003-yil 4-iyuldagi № 474-II-sonli Qonuni (2024-yil 20-avgust holatiga ko'ra o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
- 1.8 Qirg'iziston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasini optimallashtirish to'g'risida"gi Qonun

II. Kitob va turkum nashrlari

- 1.9 Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G. Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. -T.: TDYU nashriyoti, 2019. 186 bet.
- 1.10 Назарова Г.Г., Ахмедов И.А., Хамидов О.Б. Иминов З.М. Халкаро иқтисодий ташкилотлар. Ўқув кулланма Т. ТДИУ-2011 А.-Б.17
2. Goldman, Michael, Imperial Nature: The World Bank and Struggles for Social Justice in the Age of Globalization-New York: Yale University Press 2005.-P. 52-54

III. Foydalanilgan saytlar ro'yxati:

3. 3.1 Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) - <https://carececo.org/main/>
4. 3.2 Jahon savdo tashkilotining rasmiy sayti - <https://www.wto.org/>
5. 3.3 Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) - <https://eng.sectesco.org/>
6. 3.4 Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOI) - <https://www.gov.kz/memleket/entities/mti/activities/278?lang=ru>
7. 3.5 Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi - <https://icsid.worldbank.org/>
8. 3.6 Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risida - https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/19-09951_e_ebook.pdf
9. 3.7 Xalqaro valyuta fondining rasmiy sayti - <https://www.imf.org/en/Home>
10. 3.8 BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasining rasmiy sayti - <https://unctad.org/>
11. 3.9 Jahon savdo tashkilotining rasmiy sayti - <https://www.wto.org/>